

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JARIMA TARZIDAGI JAZONI IJRO ETISH TARTIBI, SHARTLARI VA IJRODAGI RAQAMLASHTIRISH

Shuhrat Irnazarov

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti

Jinoyat va fuqarolik protsessi kafedrasi o‘qituvchisi

Muratov Diyarbek Gurbanmurat o‘g‘li

Normurodov Hasanbek Shamsiddin o‘g‘li

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti 4-kurs talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida jarima jazosi ijro etishning huquqiy asoslari amaldagi tartib-qoidalari, raqamlashtirish tendensiyalari, kechiktirish va bo‘lib to‘lash institutlari, to‘lamaslik uchun javobgarlik tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: jarima, jinoyat-ijroiya huquqi, majburiy ijro, bo‘lib to‘lash, raqamlashtirish, “MIB” portali.

Kirish:

Jarima bu – aybdordan davlat daromadiga Jinoyat kodeksida belgilangan miqdorda pul undirishdir. Jinoyat huquqi va jazolarni ijro etish tizimi doirasida, jazo turlari orasida jarima eng yengil, biroq muhim ijtimoiy-huquqiy ta’sir chorasidir. Jarima O‘zbekiston jinoyat huquqida eng keng qo‘llaniladigan va insonparvarlik tamoyillariga eng mos keladigan jazo turi hisoblanadi Jarima jazoni ijro etishning samarali tashkil etilishi nafaqat davlat byudjetiga qo‘shimcha mablag‘ keltiradi, balki mahkumning oilasi va jamiyat bilan aloqasini uzmaydi, qayta jinoyatchilikning oldini olishda muhim omil bo‘ladi.

Jarima jazosini tayinlash uchun asoslar:

Voyaga yetganlarga nisbatan jinoyat kodeksining 44-moddasi muvofiq, jarima bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda belgilanadi va faqat asosiy jazo tarzida tayinlanishi mumkin.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat kodeksining 82-moddasiga muvofiq, jarima bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda tayinlanadi.

Jarimani sud aybdorning sodir qilgan jinoyatining ijtimoiy xavfliligini hamda uning moddiy ahvolini hisobga olgan holda tayinlaydi. Bunda, chunonchi, sudlanuvchining moddiy ahvoli, shuningdek qaramog‘ida voyaga yetmaganlar farzandlari, keksa ota-onasi borligi va h.k.lar inobatga olinishi lozim.

Mahkum sud tomonidan tayinlangan jarima jazosini to'lash imkoniyatiga amalda yetarli darajada ega bo'lishligi kerak.¹

Jarima jazosini ijro etish muddatlari:

Jarima tariqasidagi jazoga hukm qilingan shaxs jarimani hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab bir oylik muddat ichida ixtiyoriy ravishda to'lashi shart. Mahkum belgilangan muddatda jarimani ixtiyoriy ravishda to'lamagan taqdirda, jarima davlat ijrochisi tomonidan majburiy tartibda undirib olinadi.²

Jarimani majburiy undirish voyaga yetmaganlarga mahkumga nisbatan qo'llanilmaydi.

O'n sakkiz yoshga to'lmagan jinoyat sodir etgan va jarima tariqasidagi jazoga hukm qilingan shaxs hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab olti oylik muddat ichida jarimani ixtiyoriy ravishda to'lashi shart.³

Jarima jazosini majburiy undirish Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi davlat ijrochilari tomonidan undiriladi.

Jarima jazosini kechiktirish, bo'lib to'lash va to'lamaganlik oqibati.

Jinoyat-ijroiya kodeksining 19-moddasi 3-qismida ko'rsatilishicha, agar belgilangan muddatda jarimani to'liq miqdorda to'lashga mahkumning imkoni bo'lmasa, sud uning iltimosnomasiga ko'ra hukmning ijrosini Jinoyat-protsessual kodeksining 533-moddasi 2-qismiga asosan olti oygacha kechiktirishi yoki jarimani bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat etishi mumkin. Albatta, bu masalani hal etishda sudya ishning muayyan holatlarini va mahkumning moddiy ahvolini e'tiborga olib hal qiladi. Jarima jazosini belgilangan muddatda to'lashning imkoniyati yo'q, deb hisoblash uchun mahkumning oylik maoshini kamligi, daromadining yetishmasligi, oilaviy sharoitining og'irligi, qaramog'ida boquvchilarining ko'pligi haqidagi hujjatlar asos bo'la oladi. Shuningdek, mahkumning og'ir kasal bo'lib qolishi yoki shunga o'xshash boshqa sabablarga ko'ra ham jarimani to'lash muddatini kechiktirishga yoki bo'lib-bo'lib to'lashga asos bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi qonunining 32¹-moddasida ham hukm qilingan shaxs jazo tariqasida tayinlangan jarimani majburiy ijro etish uchun belgilangan muddatlarda to'lashdan bo'yin tovlasa yoxud qarzdorda undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan mol-mulk mavjud emasligi tufayli majburiy ijro etish uchun belgilangan muddat mobaynida jarimani undirishning imkoni bo'lmasa, xuddi shuningdek kechiktirish muddati tugaganidan keyin jarima to'lanmagan yoki jarimani bo'lib-bo'lib to'lash shartlari buzilgan taqdirda, sud

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 03.02.2006 yildagi 1-son

² Jinoyat ijroiya kodeksi

³ O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 16 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-448-son Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.01.2018 y., 03/18/463/0634-son.

ijrochisi jarima tariqasidagi jazoni jazoning boshqa turi bilan almashtirish to'g'risidagi taqdimnoma bilan sudga o'n kunlik muddat ichida murojaat qilishi ko'rsatilgan.

Bunday holda sud jarima jazosini davlat ijrochisining taqdimnomasiga asosan boshqa og'irroq jazolarga, ya'ni majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazolariga almashtirish to'g'risida ajrim chiqaradi.

Sud tomonidan majburiy jamoat ishlarining ikki yarim soati bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdoridagi jarimaga tenglashtirilib, to'rt yuz sakson soatdan ko'p bo'lmagan muddatga, axloq tuzatish ishlarining, xizmat bo'yicha cheklashning, ozodlikni cheklashning yoki ozodlikdan mahrum qilishning har bir oyi bazaviy hisoblash miqdorining o'n olti baravari miqdoridagi jarimaga tenglashtirilib, uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga tayinlanadi.

Raqamlashtirish va zamonaviy mexanizmlari.

O'zbekistonda keyingi yillarda zamon talabidan kelib chiqib, har bir soha va tarmoqlarni raqamlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Prezidentning 2024 yilning 3 yanvardagi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini isloh etish va sohani raqamlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni qo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda Majburiy ijro byurosi organlarida raqamlashtirish sohasida bir qator islohotlar amalga oshirilib, aholiga qulaylik yaratish maqsadida zamonaviy elektron xizmatlar joriy etilgan. Misol uchun fuqarolarga chiqarilgan sud yoki boshqa ma'muriy organlar qarorlari bugungi kunda to'liq avtomatlashtirilgan holda qabul qilinmoqda.

Xususan, MIB tomonidan ishlab chiqilgan mib.uz mobil ilovasi orqali fuqarolar o'zlariga tegishli ijro ishlari, qarzdorliklar va cheklovlar haqida ma'lumot olishlari mumkin. MIB qarzdorlarga ijro ishlari, cheklovlar va boshqa muhim ma'lumotlar haqida "mib" belgisi bilan "SMS" xabarlar yuborib ogohlantiradi.

Qolaversa, mib.uz sayti orqali fuqarolar qator xizmatlardan foydalanib kelishmoqda. Qarzdorlikni tekshirish, ijro monitoringi, respublikadan chiqishga cheklov, aliment hujjatlari, qayta ijroga topshirish, taransport va ko'chmas mol-mulklarni tekshirish kabilar ana shular jumlasidan. Shuningdek, Telegram bot (@mibuzrasmiy_bot) orqali ham murojaat qiluvchi o'ziga tegishli ijro ishlari to'g'risida to'liq ma'lumot olishi mumkin. Elektron portallar va integratsiya tizimida MIBning elektron xizmatlari "MIB portal" dasturi orqali 35 ta tashkilotning 63 ta yo'nalishdagi axborot tizimlariga integratsiya qilingan. Bu, o'z navbatida, ijro hujjatlari yurituvi, aylanmasi va ijro etish bosqichlarini elektron tarzda amalga oshirish imkonini beradi.⁴

Xulosa:

⁴ https://uza.uz/oz/posts/mib-raqamlashtirish-jadallashmoqda_30.11.2025

O'zbekiston Respublikasida jarima tarzidagi jazoni ijro etish tizimi jinoyat-ijro qonunchiligi bilan aniq tartibga solingan bo'lib, jarimani qo'llash, to'lash va undirish mexanizmlarining huquqiy asoslari shakllangan. Ushbu jazo turi shaxsni jamiyatdan ajratmagan holda unga nisbatan iqtisodiy mas'uliyat yuklaydi hamda jinoyatning og'irlik darajasiga mutanosib tarzda qo'llanadi. Jarima ijrosining belgilangan tartibda amalga oshirilishi jazoning muqarrarliligi tamoyilini ta'minlaydi, uni o'z vaqtida bajarmaslik esa majburiy undirish yoki uni boshqa jazo turiga almashtirishga olib kelishi bilan ahamiyatlidir. Amaliyotda jarimani ijro etish mexanizmini takomillashtirish, undirish jarayonida shaffoflikni kuchaytirish va raqamli nazorat tizimlarini joriy etish ushbu institut samaradorligini yanada oshiradi. Shu bois jarima jazosi jinoyat sodir etgan shaxsga ta'sir ko'rsatishning iqtisodiy jihatdan maqbul va ijtimoiy jihatdan nisbatan yengil shakli sifatida o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 03.02.2006 yildagi 1-son
2. Jinoyat ijroiya kodeksi
3. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 16 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-448-son Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.01.2018 y., 03/18/463/0634-son.
4. https://uza.uz/oz/posts/mib-raqamlashtirish-jadallashmoqda_30.11.2025